



elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.1 (3)
2025

MUNDARIJA

SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA YARATILGAN ASARLARNING MUHOFAZAGA LAYOQATLILIGI	2
Zebiniso Sheraliyeva	2
KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHGA DOIR XALQARO STANDART HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DAVLATLARNING MANFAATLI HAMKORLIGI MASALALARINING DOLZARBLIGI	9
Mirjalil Mirsamatov	9
KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17
Nodirjon Xabibiddinov	17
ALGORITHMIC MANAGEMENT AND PROFESSIONAL AUTONOMY: THE IMPACT OF DIGITAL PERFORMANCE MONITORING ON MEDICAL WORKERS' CONTRACTUAL RIGHTS	30
Otaboy Yashnarbekov	30
REGULATORY FRAGMENTATION AND HARMONIZATION CHALLENGES IN ENERGY SECTOR CYBERSECURITY LAW	50
Mirzokhid Musayev	50
ZAMONAVIY HUQUQIY DAVLATDA HUQUQNI SHARHLASH HUQUQNI QO'LLASHNING VOSITASI	71
Risolat Rasulbekova	71

SUN'YI INTELEKT ASOSIDA YARATILGAN ASARLARNING MUHOFAZAGA LAYOQATLILIGI

Zebiniso Sheraliyeva

zebinisosheraliyeva2002@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt asosida yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi doirasida muhofazaga layoqatliligi masalasini O'zbekiston qonunchiligi kontekstida tahlil qiladi. Muallif sun'iy intellektning ijodkorlik xususiyatlari va insonga o'xshash qayta ishlash jarayonlariga asoslanib, uni nisbiy yuridik shaxs sifatida tan olish imkoniyatini ko'rib chiqadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt yaratgan asarlarni yaratilganlik fakti asosida muhofaza qilish, majburiy sug'urtalash tizimi joriy etish va maxsus qonunchilik bazasi yaratish zaruriyati asoslanadi. Ishda shaxsiy nomulkiy, mulkiy va mutlaq huquqlarni himoya qilish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, intellektual mulk, huquqiy muhofaza, ijodkorlik, originallik, qonunchilik, yuridik shaxs.

Kirish

Mualliflik huquqida yaratilgan obyektlarni huquqiy muhofazalash deganda obyektlarning subyektiv egalarining huquqlarini qonuniy jihatdan himoya qilish, qonun himoyasiga olish tushuniladi. Tushunilganidek, mualliflik huquqi obyektlari o‘z-o‘zidan emas, ma’lum huqularga egalik qiluvchi shaxslar, uning muallifining shaxsiy huquqlari, litsenziya shartnomasi asosida foydalanuvchisining huquqlari, mutlaq huquq sohiblarining huquqlari muhofaza ostiga olinishini tushunishimiz mumkin. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish: - ularning yaratilganlik fakti asosida; - FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi[1]. Yaratilganlik fakti asosida himoyalash ayni mualliflik huquqi obyektlariga tegishli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 27.08.2004 yildagi 681-II-sonli Qarori bilan qabul qilingan “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Bern Konvensiyasida avvalgi moddaning qoidalari hammualliflikda yaratilgan asarlar uchun ham qo‘llanadi, bunda muallifning vafot etgan vaqtidan e’tiboran belgilanadigan muddatlar boshqa hammualliflardan ortiq yashagan oxirgi muallifning vafot etgan vaqtidan e’tiboran hisoblanadi[2]. Shu asosda ham mualliflik yaratilganlik asosida muhofaza ostiga olinishini ko‘ramiz.

Mualliflik huquqi obyekti ijodkor tomonidan yaratilgan vaqtda u ommaga og‘zaki yoki yozma shaklda, shuningdek, biron turdagi tasvir shaklida idrok qilish imkonini beruvchi ko‘rinishda taqdim etishi mumkin. Ana shu vaqtdan boshlab, huquqlarning asl himoyasi boshlanadi. Obyektni yaratgan shaxs agar uni oshkor etmasa ham undagi huquqlar vujudga kelgan hisoblanadi. Faqatgina barchada asar yaratilganligi yuzasidan idrok shaklida tushuncha va xabardorlik bo‘lmas ekan buni himoyalash jarayoni murakkablashadi. Buning uchun muallif yoxud huquq egasi yaratilganlik faktini vaqti va muddati bilan o‘ziniki ekanligini isbotlay olishi lozim. Agarda huquq buzilib, boshqa shaxs tomonidan ushbu holatlar oshkor etilgan taqdirda ham asar boshqa huquq buzuvchi tomonidan e’lon qilinishidan oldin asl egasi tomonidan yaratilganligi isbotlanishi mumkin. Masalan, muallif bu ishni asarni qaysidir bosmaxonaga e’lon qilish maqsadi

bilan topshirgan bolishi yoxud saqlab turishga depozitariyga bergan bo'lish fakti mumkin.

Asosiy qism

Intellectual mulk huquqi boshqa sohalarida, misol uchun “«Ixtiro, foydali model, sanoat namunalari to'g'risida”gi Qonunga ko'ra, yaratilgan ixtiro tegishli tarzda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi yoxud kamida talabnoma berilgan bo'lishi lozim. Shundagina subyektiv huquqlar muhofazaning 4 shakli bo'lgan:

1. Ro'yxatdan o'tganlik
2. Talabnoma yuborganlik
3. Konvensiya
4. Ko'rgazma ustuvorligi bilan muhofazalanadi.

Mualliflik huquqida esa yaratilganlik fakti uni oshkor etish yoki etmaganlikdan qat'iy nazar himoya qilinadi. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonun 10-moddasiga asosan mualliflik huquqida obyektlar yaratilganlik fakti asosida muhofazaga olinadi. Bunda muallif o'zining ijodiga mansubligini ko'rsatish uchun asarda o'z imzosini, ismini yoki boshqa belgilarini qoldirishi mumkin. Agarda asar taxallus bilan yoki imzosiz chop etilgan, ommaga oshkor etilgan taqdirda (muallif kimligiga shubha bo'lmaydigan holler bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi ko'rsatilgan noshir, agar boshqa dalillar mavjud bo'lmasa, u muallifning vakili hisoblanadi hamda uning huquqlarini himoya qiluvchi vakil hisoblanadi[3]. Bu qoidani esa muallif o'zini oshkor etgunicha saqlab turish mumkin. Bunda asarni oshkor etmoqchi bo'lgan muallif, agar uning asar yuzasidan shartnomalarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, oldindan ogohlantirib qo'yishi lozim bo'ladi.

Shunga ko'ra, mualliflik huquqi obyektlari e'lon qilingan (oshkor qilingan, chop etilgan) yoki e'lon qilinmagan asarlar bo'lishidan qat'iy nazar, mualliflik huquqi bilan muhofaza etilishi inobatga olinishi lozim[4]. Mualliflik huquqida fikr, g'oya, usul va jarayonlar boshqa intellektual mulk huquq sohasi kabi muhofazalanmaydi. Aksincha, ifodaviy xarakterga va idrok ko'rinishiga o'tgachgina unga muhofaza beriladi. Bu 19-sonli

“Intellektual mulkka oid ishlarni ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Plenum qarorida ham aytib o‘tilgan.

Sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar ham muhofazaga ayni intellekt yaratgan vaqt bilan belgilab qo‘yishimiz yanada osonlashadi. Intellektda baza mavjud. Bu bazada qachon va kimning buyrug‘i asosida yaratilganlikni ham hisoblab turadigan alohida funktsiya qo‘shilishi natijasida ish osonlashishi ehtimoli yuqori. Bunda asar e‘lon qilingan taqdirda bu haqiqatmi yoki teskarisimi aniqlab olishda hech qanday muammo va shubhalarga o‘rin qoldirmagan bo‘lar edik. Shuningdek, sun‘iy intellekt asosida yaratilgan asarlarda alohida belgi qo‘yish tizimini ham ko‘rib chiqish mumkinligini ham hisobga olish lozim.

Muhofazaga muallifning shaxsiy nomulkiy, mulkiy va mutlaq huquqlari olinadi. Shaxsiy nomulkiy huquqi FKning 1051-moddasiga ko‘ra, asar muallifi deb e‘tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi);

asardan muallifning haqiqiy ismi, taxallusini ko‘rsatgan holda yoxud ismini ko‘rsatmasdan, ya‘ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismiga bo‘lgan huquq);

asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo‘lgan huquq), shu jumladan chaqirib olish huquqi;

asarni, shu jumladan uning nomini muallifning sha‘ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro‘cini himoya qilish huquqi)[5] hisoblanadi. Hammualliflikda barchasining shu kabi huquqlari mavjud bo‘ladi va muhofaza himoya bosqichigacha davom etadi. Bu huquqlar mualliflik sifatida boshqaga berilmaydi. Shuningdek, bular tarkibiga asarni muallif roziligisiz omma oldida oshkor etish, ijro etish yoki asarga qo‘shimcha sharh, tuzatish va qismlar qo‘shish ham taqiqlanadi. Bunda originallikni isbotlab berish asosiyga chiqadi. To‘g‘ri syujet o‘xshash bo‘ladi, lekin originallikni mualliflik huquqi mutaxassislari ajrata olishadi. Ilhomlanish va ko‘chirishda farq bo‘ladi bu yozuv va ifoda usulidan kelib chiqadi.

Mutlaq mualliflik huquqlari egasi o'z huquqlaridan xabardor qilish uchun mualliflik huquqining muhofaza belgisidan foydalanishi mumkin bo'lib, bu belgi asarning har bir nusxasida aks ettiriladi va quyidagi uch unsurdan iborat bo'ladi:

aylana ichidagi lotincha "S" harfi;

mutlaq mualliflik huquqlari egasining ismi-sharifi (nomi); asar birinchi marta chop etilgan yil.

Mualliflik huquqining muhofaza belgisida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlangan bo'lmasa, mutlaq mualliflik huquqlari egasi hisoblanadi[6].

Mamlakatimizda mualliflik huquqi obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti mavjud emas. Muallif muhofaza olgach, barcha mulkiy, shaxsiy nomulkiy va mutlaq huquqlarni egallaydi va bu huquqlarni erkin amalga oshirish mumkin. himoyasi esa qonun bilan qo'riqlanadi. Asarni begonalashtirishga ham mualliflarning roziliklari olinishi lozim bo'ladi.

Sun'iy intellektda hammualliflik taklif etilayotganligi bilan shuni aytmoqchimanki, sun'iy intellektni yuqorida ko'rsatib o'tganimdek nisbatan subyekt sifatida baholash mantiqqa yaqinroq bo'ladi va buni to'la mantiqiy deyishdan ham ancha yiroqman. Biz muallif deb tan olish uchun sun'iy intellektda barcha ijodkorlik, originallik kabi xususiyatlar jamlanmoqda. Qayta ishlash ham bizning miyyamizning ishi kabidir. Biz ham ma'lumotlarni yig'amiz. Nimadir asar yaratishimiz uchun oldin fikr, g'oya paydo bo'ladi, so'ngra uni amalga oshirish yo'llarini hamda bu yo'lda qanday yordam olishimiz mumkinligi haqida o'ylaymiz. Hattoki, badiiy asar yoza olish uchun ham oldin badiiy asarni o'qigan yoki u nima ekanligini bilishimiz kerak. Ba'zilar yo'q badiiy asar uchun ichki kechinmalar kerak bo'ladi deb hisoblashadi. Lekin hamma ham ichki kechinmalarni o'quvchiga tushunarli qilib yetkaza olmaydi, agarki, u oldin birorta badiiy asar o'qimagan bo'lsa. Yozuvchilarda ham yozishdan oldin o'qish ko'nikmasi shakllanadi. Turli xil kundaliklarni asar qilishda esa, albatta, biror yozuvchi yoki ijodkorning yozish usulidan foydalanilishini unutmasligimiz lozim. Shu uchun ham sun'iy intellekt yaratgan asarlarga mualliflik huquqini berishda uning yaratilganligi bilan muhofaza berish fikrida qolamiz. Bu uchun

dasturchi tomonidan tuziladigan dasturda shartnomani foydalanuvchiga ko'rsatish bilan bir qatorda asar yaratish boshlangan va tugallangan vaqtni aniqlab ko'rsatuvchi funktsiya ham qo'shilishi maqsadlidir.

Xulosa

Haqiqatan, sun'iy intellekt ijodkorlik xususiyati mavjud, garchi u bilimlarni sun'iy yo'l bilan olsada, insondagi qayta ishlash sistemasini o'zida namoyon qila olgan. Bunda undagi dastur unga yordamchi va ishlashida insonga o'xshashida ko'mak beradi, xolos. Mualliflik huquqi ham uni ro'yxatdan o'tkazish bilan yoki ommaga oshkor qilish bilan emas, faqatgina yaratganlik va buni isbotlaganlik bilan muhofaza qilinadi va huquqlar subyektga beriladi. Sun'iy intellektni subyekt emas deb hisoblaydigan fikrlar ham yo'q emas, lekin yuridik shaxsni subyekt deb hisoblaganimiz kabi uni ham nisbiy tarzda yuridik shaxs qoidalarini subsidiary qo'llab, huquq egasi sifatida ko'ra olamiz. Huquq egasi sifatida sun'iy intellektni yaratgan dastur muallifi yoxud dastlabki egasidan mulkiy va mutlaq huquqlar begonalashtirilgan bo'lsa (negaki, shaxsiy nomulkiy begonalashtirilmasligini aytib o'tdik), ayni vaqtda huquq egasi sifatida sun'iy intellektdan foydalanuvchi egasini, shaxsni, ko'rsatib qo'yishimiz mumkin. sun'iy intellektning oshiqcha xavf vujudga keltirishi oldini olish uchun esa unga avtotransport vositasini sug'urtalash tizimiga o'xshab, majburiy sug'urtalash tizimini joriy qilish lozim bo'ladi. Foydalanuvchi esa undan foydalanish uchun shunchaki huquqni tekin olmasdan to'lov evaziga olsa, intellekt xotira bazasida ham qolishi osonlashadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt ishlashi uchun lozim manbalarni ham haqqoniy yo'l bilan olishi, o'rganish uchun olgan ma'lumotlari ochiq saytdagiligiga ishonch hosil qilinishi hamda mualliflik obyektlari uchun qonuniy foydalanishni nazarda tutuvchi tizim va qonunchilik bazasi ham zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 650-b.
2. Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (Phd), dotsent N.E.Gafurova//Mualliflar jamoasi: - T.: TDYU nashriyoti, 2019 – 588 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 27.08.2004 yildagi 681-II-sonli Qarori bilan qabul qilingan “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida”gi Bern Konvensiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumning qarori, 23.06.2023 yildagi 19-son.

[1] Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 650-b.

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 27.08.2004 yildagi 681-II-sonli Qarori bilan qabul qilingan “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida”gi Bern Konvensiyasi
<https://lex.uz/docs/-1310607#-5624834>

[3] Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (Phd), dotsent N.E.Gafurova//Mualliflar jamoasi: - T.: TDYU nashriyoti, 2019 – 588 bet.

[4] O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumning qarori, 23.06.2023 yildagi 19-son, <https://lex.uz/uz/docs/-6522606> (kirish vaqti:13.03.2024)

[5] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-180552> (kirish vaqti: 13.03.2025)

[6] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-180552> (kirish vaqti: 13.03.2025)